




MINISTRY OF HIGHER EDUCATION,  
SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**“ISSUES AND CHALLENGES OF MODERN  
LINGUISTICS IN NEW UZBEKISTAN:  
LINGUOCULTUROLOGICAL,  
PRAGMALINGUISTIC,  
NEUROPSYCHOLINGUISTIC AND  
LINGUOFOLKLORISTIC APPROACHES”**

INTERNATIONAL SCIENTIFIC &  
THEORETICAL CONFERENCE



PKP|INDEX

BUKHARA -2024

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

**“YANGI O'ZBEKISTON TILSHUNOSLIGIDA  
LINGVOKULTUROLOGIYA, PRAGMALINGVISTIKA,  
NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA LINGVOFOLKLORISTIKA  
SOHALARINING DOLZARB MUAMMOLARI”**

(Filologiya fanlari doktori, professor R.R.Bobokalonov tavalludining 65 yilligiga bag'ishlanadi)

**XALQARO ILMIY-NAZARIY ANJUMAN  
MATERIALLAR TO'PLAMI**

©Buxoro davlat universiteti  
©Fransuz filologiyasi kafedrasи

Buxoro-2024

**UO'K 81'373**

**81.1-3**

**G 13**

Yangi O'zbekiston tilshunosligida lingvokulturologiya, pragmalingvistika, neyropsixolingvistika va lingvofolkloristika sohalarining dolzarb muammolari (**Filologiya fanlari doktori, professor R.R.Bobokalonov tavalludining 65 yilligiga bag'ishlanadi**): maqola va tezislар to'plами, to'plovchi hamda nashrga tayyorlovchilar: O.O.Bobokalonov, N.B.Kuldasheva, N.N.Abdullayeva; Buxoro; "Durdona" nashriyoti, 2024 yil, **856** bet.

**KBK 81.1-3**

- ❖ Filologiya fanlari doktori (DSc), professor **R.R. Bobokalonov** umumiy tahriri asosida

**Bosh muharrir:**

O.O. Bobokalonov, f.f.f.d. (PhD), dotsent

**Mas'ul muharrirlar:**

M.H.Xamidova, f.f.f.d. (PhD), dotsent

M.M.Jo'rayeva, f.f.f.d. (PhD), dotsent

D.B.Narzullayeva, Fransuz filologiyasi kafedrasи tadqiqotchisi

**Texnik muharrirlar:**

B.Q.Akramov, Fransuz filologiyasi kafedrasи tadqiqotchisi

R.O.Bobokalonov, Fakultetlararo chet tillar kafedrasи tadqiqotchisi

S.T.Temirov, Fransuz filologiyasi kafedrasи ilmiy-texnik assistenti

**Tahririyat manzili:**

Buxoro davlat universiteti, M.Iqbol ko'chasi 11-uy

<b>Tashkiliy qo'mita manzili:</b>	<b>Tashkiliy qo'mita mas'uli:</b>
<b>Buxoro davlat universiteti Buxoro shahar M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel: <a href="tel:+998652212914">(+998) 65 221-29-14</a> Fax: <a href="tel:+9983652212707">8(365) 221-27-07</a> Elektron pochta manzili: <a href="mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz">buxdu_rektor@buxdu.uz</a></b>	<b>Fransuz filologiyasi kafedrasи mudiri Bobokalonov Odilshoh Ostonovich Tel: <a href="tel:+998912423332">(+998) 91 242-33-32</a> <a href="tel:+998973043332">(+998) 97 304-33-32</a> Telegram ID: <a href="https://t.me/OdilshohOstonovich">@OdilshohOstonovich</a> Elektron pochta manzili: <a href="mailto:o.o.bobokalonov@buxdu.uz">o.o.bobokalonov@buxdu.uz</a></b>

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20-martdagи 76-sон farmoyishining 1-ilovasi "2024 yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi"ga ko'ra anjuman o'tkazildi va chop etildi*

**ISBN 978-9943-6197-4-6**



 @buxdu\_uz

 buxdul

 buxdu

 @buxdu.uz-official



BuxDU Matbuot xizmati

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universiteti tomonidan "Yangi O'zbekiston tilshunosligida lingvokulturologiya, pragmalingvistika, neyropsixolingvistika va lingvofolkloristika sohalarining dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman 2024-yil 16-17-aprel kunlari o'tkazildi. Mazkur Xalqaro anjumanimizda Oliy o'quv yurtlari hamda ilmiy-tekshirish instituti olimlari, yetuk mutaxassislar, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar, talabalar, xorijiy mamlakat olimlari ishtirok etishdi.

Anjuman maqsadi tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalingvistika, neyropsixolingvistika va lingvofolkloristika sohalaridagi taniqli tadqiqotchilar va mutaxassislarni birlashtirgan yuqori darajadagi akademik almashinuvlar ta'minlashdan iborat.

### Anjumanda muhokama qilingan yo'nalishlar va sohalar:

#### ❖ TILSHUNOSLIK

- ❖ Nazariy tilshunoslik
- ❖ Amaliy tilshunoslik
- ❖ Qiyosiy tilshunoslik
- ❖ Chog'ishtirma tilshunoslik
- ❖ Umumiy tilshunoslik
- ❖ Matn tilshunosligi
- ❖ Zamonaviy tilshunoslik
- ❖ Tarixiy tilshunoslik

#### ❖ ADABIYOTSHUNOSLIK

- ❖ Lingvofolkloristika
- ❖ Lingvopoetika

#### ❖ TIL VA PEDAGOGIK TA'LIM

- ❖ Pedagogika
- ❖ Didaktika

- ❖ Lingvomadaniyatshunoslik
- ❖ Psixolingvistika
- ❖ Neyrolingvistika
- ❖ Neyropsixolingvistika
- ❖ Pragmalingvistika
- ❖ Etnolingvistika
- ❖ Sotsiolingvistika
- ❖ Kognitiv lingvistika

- ❖ Lingvostilistika
- ❖ Narratologiya

- ❖ Metodologiya
- ❖ Metodika

## **Ilmiy-nazariy anjuman quyidagi sho'balarda ish olib bordi:**

### **1-SHO'BA. ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK MASALALARI:**

O'zbek va xorijiy tillar muhitida vujudga kelgan zamonaviy til yo'nalishlari, sintaktik va semantik rivojlanishlarni chuqur tahlil qilish hamda til va madaniyatni o'zida mujassamlashtiruvchi ilg'or tilshunoslikning dolzab muammolari tadqiqi yoritiladi.

### **2-SHO'BA. NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA PRAGMALINGVISTIKA DOIRASIDAGI ILMYI IZLANISHLAR:**

Tilshunoslikning turli ijtimoiy-madaniy sharoitlarida tilning pragmatik qo'llanilishiga oid tadqiqotlar hamda Yangi O'zbekistonga xos bo'lgan lingvistik jihatlar va neyropsixologik faoliyati o'rtaсидаги aloqalarni o'rganishga urg'u beriladi.

### **3-SHO'BA. ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA LINGVOFOLKLORISTIKA TADQIQOTLARI:**

O'zbek xalq og'zaki ijodi va jahon folklorida ildiz otgan til an'analarini tekshirish, ayniqsa, og'zaki rivoyatlarga va lingvistik avloddan avlodga o'tishga jihatlariga e'tibor qaratiladi.

### **4-SHO'BA. TIL VA TA'LIM:**

Tilshunoslik, filologiya va barcha ta'lim sohalari oldida turgan farqli va mushtarak ilmlarni tadqiq etishga asosiy urg'u beriladi.



**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND  
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**  
**BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**FRENCH PHILOLOGY DEPARTMENT**



**"Issues and challenges of modern linguistics in new Uzbekistan:  
Linguoculturological, pragmalinguistic, neuropsycholinguistic  
and linguofolkloristic approaches"**



**INTERNATIONAL SCIENTIFIC & THEORETICAL  
CONFERENCE**

April 16-17, 2024  
Bukhara

#### **Participating Higher Education Institutions countries**

Uzbekistan, France, Great Britain, Russia, China, Cameroon, Germany,  
Italy, Spain, Belgium, South Korea, Kazakhstan, Tajikistan, Kyrgyzstan

**BUXORO DAVLAT  
PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**



<i>Nishonov P.P.</i> Rus va slavyan antroponimlarining milliy – madaniy qirralari .....	169
<i>Sanoqulov J.X.</i> Zamonaviy tilshunoslik multimadaniy muhitining fransuz nutqidagi ta’sir ko‘lami .....	173
<i>Sanakulov H.Kh.</i> Évolution sémantique des termes psychologiques en français au cours des dernières décennies .....	181
<i>Sayfullayev B.N. &amp; Abdusalomova M.A.</i> O‘zbek va fransuz tillarida so‘roq gaplarning yasalishi va o‘zlashtirmalik xossalari .....	190
<i>Sayfullayev B.N. &amp; Isroilova X.N.</i> O‘zbek va fransuz tillari ot so‘z birikmali gap va o‘zlashtirmalik xossalari .....	194
<i>Sayfullayeva R.R.</i> Milliy tilimizni yuksaltirish davri .....	199
<i>Sodiqov M.S.</i> Fransuz va o‘zbek tillarida tejamkorlik va ortiqchalikning ifodalanishi .....	204
<i>Tairova M.Kh. &amp; Hakimov B.S.</i> Caractéristiques sémantiques des termes pharmaceutiques en langues russe et français .....	208
<i>Teshaeva D.</i> Linguistic and cultural challenges in the field of linguoculturology in contemporary Uzbekistan .....	213
<i>To‘yboyeva Sh. R. &amp; Normurotova F.O’.</i> Qiyoziy tillar kesimida ko‘plik kategoriyasining badiiy kontekstda namoyon bo‘lishi .....	216
<i>Turgunbaeva G.T.</i> Analyzing gastronomic tourism terms and conditions .....	222
<i>Умирзакова Ш.Г.</i> Направления современной лингвистики: язык и культура .....	228
<i>Usmonova N.S.</i> Fransuz an'analarida “Vodiyl nilufari - le muguet de mai”ning madaniy-tarixiy timsoli .....	232
<i>Valieva N.Z</i> Linguocultureme as a fundamental concept in Linguoculturology (on the material of English, Russian and Uzbek languages) .....	237
<i>Xolova Sh.D. &amp; Rahmatova M.H.</i> Salbiy emotiv frazemalar tarjimasida lingvomadaniy xususiyatlar .....	241
<i>Xusinova Sh.X.</i> Sociocultural significance and communicative function of nicknames in the English language .....	245
<i>Yakubov J.A.</i> Ayollar nutqidagi “va’dal berish” leksemasi tarjimada ifodalanishining funksional semantik xususiyatlari .....	250
<i>Yang Bai (Ян Бай)</i> Анализ национально-культурных особенностей фразеологизмов с компонентом-лошадью в китайском языке .....	255
<i>Yaxshiboev M.D.</i> Siyoziy lingvistikaning rivojlanish bosqichlari .....	261
<i>Zokirova D.M., Djumabaeva M.A. &amp; Salimova M.S.</i> Cognitive linguistics and Concept .....	266
<i>O‘rinboyeva G.D.</i> Turli tizimli tillarda so‘z fonologik strukturasi xususiyatlari qiyoziy tadqiqi (ingliz va o‘zbek tillari misolida) .....	273
<b>2-SHO‘BA. NEYROPSIXOLINGVISTIKA VA PRAGMALINGVISTIKA DOIRASIDAGI ILMIY IZLANISHLAR .....</b>	<b>279</b>
<i>Akramov B.Q. &amp; Abdullayeva A.U.</i> Interprétation sociale du lexique français des marchés et des processus commerciaux .....	280
<i>Akramov B.Q. &amp; Muhidov A.Sh.</i> Caractéristiques étymologiques de la terminologie commerciale en français .....	287
<i>Adizova O.I. &amp; Gulyamova R.K.</i> Fransuz tilida “fidélité” (sadoqat) termini ishtirokidagi iboralarning leksik-semantik tahlili .....	294
<i>Adizova O.I. &amp; Rahmatova Z.M.</i> Fransuz tilida sifatlarning grammatik kategoriyalari .....	300
<i>Alimova S.S.</i> Murojaat shakli sifatida qo‘llaniluvchi turdosh otlarning pragmatik aspekti .....	305

 **10.5281/zenodo.11212213**

## **O‘ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA SO‘ROQ GAPLARNING YASALISHI VA O‘ZLASHTIRMALIK XOSSALARI**



**Buxoro, O‘zbekiston**

**Sayfullayev Baxshillo Nematulloyevich**

*Mustaqil tadqiqotchi, fransuz tili o‘qituvchi  
Fransuz filologiyasi kafedrasи*

*Xorijiy tillar fakulteti  
Buxoro davlat universiteti*

 [b.n.sayfullayev@buxdu.uz](mailto:b.n.sayfullayev@buxdu.uz)



<https://scholar.google.com/citations?user=DTm420UAAAAJ&hl=fr&oi=ao>



**Isroilova Xurshida Nafiddin qizi**

*Filologiya va tillarni o‘qitish (fransuz tili)  
ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*

*Xorijiy tillar fakulteti  
Buxoro davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek va fransuz tillarida ot so‘z birikmali gaplar va o‘zga nutqning ifoda turlariga e’tibor qaratilgan. Maqolada o‘zlashtirma gap tushunchasi hamda o‘zbek va fransuz tillaridagi ot so‘z birikmali gaplar misol asosida taqqoslanadi. Shuningdek, o‘zlashtirma gapning ko‘chirma gaplarga nisbatan afzalliklari oydinlashtirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ot so‘z birikmali gap, o‘zlashtirma gap, ko‘chirma gap, nutfe’llari, o‘zbek va fransuz tillari.

**Аннотация:** В данной статье уделено внимание именноименным словосочетаниям в узбекском и французском языках и типам выражений в иностранной речи. В статье на примере сравнивается понятие притяжательного предложения и предложения с именными словосочетаниями в узбекском и французском языках. Также выясняются преимущества притяжательных предложений по сравнению с производными предложениями.

**Ключевые слова:** существительные, заимствования, отрывные предложения, узбекский, французский.

**Abstract:** This article analyzes noun phrases in Uzbek and French and their characteristic features of possessive sentences. The article identifies the concept of the possessive clause, their difference from the possessive clause, and compares the noun compound clause in Uzbek and French on an example basis. Also, the advantages of possessive propositions over possessive propositions are clarified.

**Keywords:** noun compound sentences, possessive sentences, extract sentences, Uzbek, French.

## Kirish

Tilshunos olimlar so‘z birikmasi predmet, harakat birligi va hokazolarni ifodalash qobiliyatiga ega bo‘lgan, yagona murakkab ma’nolarni ifodalaydigan, sintaktik jihatdan tashkil topgan va semantik tomondan bir butun hisoblangan ikki mustaqil so‘zning birikuvi deya ta’rif beradilar [1, 85].

Ot so‘z birikmali gaplar hamda o‘zlashtirma gaplar har qanday tilda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular orqali nutqda aniqlik va ifodalilikka erishish mumkin. Shu bilan birga, boshqa odamlarning fikrlarini o‘z nutqiga singdirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ko‘chirma nutqda o‘zganing nutqi shakl va mazmun jihatdan o‘zgartirilmay tinglovchiga yetkaziladi. So‘zlovchining nutqini so‘zma-so‘z berishning zarurati bo‘lmagan paytda o‘zlashtirma gap qo‘llaniladi. Ba’zan o‘zganing gapi ko‘chirma gap bilan o‘zlashtirma gap oralig‘ida bo‘ladi. Bunda o‘zganing fikri muallif gapisiz- so‘zlovchining ishtirokisiz bayon qilinadi, ya’ni muallif ko‘chirma gapdag‘i so‘zlovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun bunday gaplar o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap hisoblanadi [2, 152].

O‘zlashtirma gaplar ko‘chirma gaplar kabi boshqa odamlar fikrlarini ifodalash uchun ishlatsa-da, ammo ular orasida farqlar mavjud. Bu farqlarni aniqlash orqali o‘zlashtirma gaplardan unumli foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu maqolada o‘zbek va fransuz tillaridagi ot so‘z birikmali gaplar hamda o‘zlashtirma gaplarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinib, ular o‘rtasidagi farqlar aniqlanadi.

## Metod va adabiyotlar tahlili

Kommunikativ maqsad kategoriyasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lmish o‘zga nutq hodisasi zamonaviy tilshunoslikda o‘z o‘rniga ega yo‘nalishlardan biridir. Tadqiqotda tavsifiy va qiyosiy usullardan foydalanildi. O‘zbek va fransuz tilida ot so‘z birikmali gap hamda o‘zlashtirma gaplar misollar asosida tavsiflash mumkin.

O‘zga nutq 3 turga bo‘lingan holda, kommunikatsiya hodisasi sifatida shakllanadi. Bular:

Ko‘chirma nutq (le discours direct).

O‘zlashtirma nutq (le discours indirect).

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma nutq (le discours indirect libre). (3,65)

O‘zganing nutqi o‘zgarishsiz, so‘zma-so‘z bayon qilinish hodisasi ko‘chirma nutq (le discours direct) bo‘lib, quyidagi ifoda usullari orqali amalga oshiriladi:

a) nutq fe’li (dire–aytmoq, demander–so‘ramoq, intersteller–murojaat qilmoq, s’écrier–hayqirmoq, baqirmoq va hokazo) ikki nuqta va tirelardan foydalanish orqali.

*La fillette le reconnut et s’écria:*

*—Vous êtes mon médecin !*

– *En effet.*

– *Papa travaille dans son atelier. Il vous attend.*

*Tout en le suivant à l'intérieur de la maison, Martina remarqua immédiatement sa démarche étrange.*

Misoldan ko‘rinadiki, muallif nutqi ko‘chirma nutqdan oldin kelganda nutq fe’lini tejash va ko‘chirma gaplarda ifodalangan turli xil emotsional holatlarni to‘g‘ri va tushunarli ifodalash maqsadida muallif va ko‘chirma nutq ikki nuqta orqali ajratilgan va vertikal tartibda har bir ko‘chirma nutq oldidan tire belgisi qo‘llanilgan;

b) ko‘chirma gap nutq fe’li va ikki nuqta (:) bilan kiritilmasdan ham matnda kelishi mumkin. Bunday holda muallif nutqi ko‘chirma nutqdan keyin keladi va ular orasida hech qanday ajratuvchi belgi qo‘yilmaydi:

*Que fabriquez-vous ici? demanda le surveillant.*

– *Je viens voir ma mère, elle travaille ici, répondit le jeune fils.*

– *Vous n’avez pas l’autorisation. Allez-vous-en!*

– *Monsieur, je vous en prie, c’est une urgence!*

Yuqoridagi holatda ko‘chirma nutq so‘roq yoki undov gap bo‘lmasa, muallif va ko‘chirma nutq orasida vergul qo‘yiladi.

– *Vous serez sans doute obligés de vous soumettre à ces règlements, affirma Louis*

### **Natijalar va muhokama**

O‘zbek tilida ot so‘z birikmali gaplar tarkibida ot turkumidagi so‘zlar muhim o‘rin tutadi. Ana shunday birikmalar asosida murakkabroq gaplar, jumladan o‘zlashtirma gaplar yuzaga keladi.

Masalan:

Bobom dedi: *"Har kuni non yeganingni bil".*

Bu ko‘chirma gapni o‘zlashtirma gap ko‘rinishiga keltirsak:

*Bobom har kuni non yeganimgni bilish kerakligini aytdi.*

Ko‘rish mumkinki, ko‘chirma gapdagi ikki gap (bobom dedi va har kuni non yeganingni bil) bitta murakkab birikmada ifodalangan.

Fransuz tilida ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Masalan:

*Mon grand-père a dit: «Tu dois savoir qui te donne du pain chaque jour.»*

Ushbu ko‘chirma gapni ham o‘zlashtirma gap tarzida ifodalash mumkin:

*Mon grand-père m'a dit que je devais savoir qui me donnait du pain chaque jour.*

Fransuz tilida o‘zlashtirma nutqda zamon, payt ravishlari bilan bir qatorda shaxs moslashuvi ham mavjud bo‘lib quyidagicha tavsiflanadi:

Je=>il,elle: Il m’a dit qu’il/elleétait là.

Tu=>je: Il m’a dit quejeviendrais aussi.

Vous=>nous: Il m’a dit quenousviendrions.

Nous=>ils: Il m’a dit qu’ilsseraient là.

Votre=>notre/mon: Il m’a dit qu’il n’avait plusmonlivre.

Vos=>nos/mes: Il m'a dit qu'il n'avait plus nos/mes livres.

Ma=>sa: Il m'a dit qu'il était dans sa voiture.

Ton=>mon: Il m'a dit qu'il réglerait mon problème.

A toi=>le mien: Il m'a dit que ce pull était le mien.

A moi=>à lui: Il m'a dit que ce chat n'était pas à lui.

Ce=>ce..là

Fransuz tilidagi payt ravishlarining o'zlashtirma nutqdagi bu o'zgarishlari o'zbek tiliga xos emas.

Ko'rinib turibdiki, ikkala til uchun ham o'zlashtirma gaplarda ko'chirma gapdagi fikr saqlanib qoladi, ammo uning shakli o'zgaradi.

O'zlashtirma gaplar, ko'chirma gaplarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- Gapning shakli soddalashadi, tushunish osonlashadi;
- Asar matnining uzviyiligi oshadi;
- Muallifning shaxsiy munosabati ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zlashtirma gaplar ko'chirma gaplarni o'zlashtirib, matn tarkibiga singdirish imkonini beradi. Natijada, badiiy asar yoxud ilmiy maqolalarda boshqa manbalar fikrlaridan oson foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi.

### Tahlil

O'zbek va fransuz tillaridagi ot so'z birikmali gaplar hamda o'zlashtirma gaplarning qiyosiy tahlili quyidagicha:

1. Ot so'z birikmali gaplar ikkala til uchun ham xos bo'lib, ularning asosiy vazifasi narsalarni ifodalashdan iborat. Masalan, o'zbek tilida "*yog' och stol'*", fransuz tilida "*table en bois*" kabi birikmalarga asoslangan sodda gaplar shular jumlasidandir.

2. O'zbek tilida ot so'z birikmali aniqlanmish, aniqlanuvchi tartibida joylashadi. Ya'ni dastlab narsalarning xususiyati, keyin o'zi keltiriladi. Fransuz tilida esa ikki xil tarzda namoyon bôladi. Bunda belle robe, petit garçon oldin narsaning xususiyati keyin narsa oti kelgan, un enfant intelligent, un chemise rouge bunda oldin narsa oti keyin esa uning xususiyati kelgan.

3. Boshqa tillar singari, fransuz tilida ham o'zga nutqni ifoda etishda har bir uslub o'ziga xos xusu-siyatga ega. Quyidagi misollarda ularning farqli jihatlarini ko'rishimiz mumkin:

Ko'chirma nutqda: «Non! Je ne partirai pas d'ici, demain!»

O'zlashtirma nutqda: Elle lui dit qu'elle ne partirait pas de là, le lendemain.

O'ziniki bo'limgan ko'chirma nutqda: Elle se fâcha. Non! Elle ne partirait pas de là, le lendemain!

4. O'zbek tilidagi o'zlashtirma gaplar oddiyroq tuzilishga ega bo'lsa, fransuzchalaridagi murakkabroq bo'ladi. Chunki fransuz tilida shakllar, zamonlar haqida qat'iy talablar mavjud.

5. Umuman olganda, har ikkala til uchun ham o'zlashtirma gaplardan foydalanish matnni yaxlitlashtirishga xizmat qiladi. Biroq ayrim jihatlari bilan farqlanadi. zero, har bir tilning o'z qonuniyatlari mavjudki, o'zlashtirish jarayonida ular hisobga olinadi.

Ushbu qisqacha tahlil o'zbek va fransuz tillaridagi ot so'z birikmali hamda o'zlashtirma gaplarga oid umumiy hamda farqli jihatlarni ko'rsatib berdi.

### Xulosa

O'zlashtirma gaplar o'ziga xos gap turini tashkil qiladi. Ular orqali ko'chirma fikrlarni osonroq ifodalash imkoniyati paydo bo'ladi. O'zbek va fransuz tillari misolida ot so'z birikmali gaplar va o'zlashtirma gaplar ko'rib chiqildi. Aniqlandiki, har ikkala tilda ham o'zlashtirma gaplardan foydalanish afzallikkari mavjud. Zero, bunday gaplar orqali matnni soddalashtirish, undagi fikrlarning uzviyilagini oshirish mumkin. O'zbek tilidagi o'zlashtirma gaplar oddiyroq tuzilishga ega bo'lsa, fransuzchalaridagi murakkabroq bo'ladi. Chunki fransuz tilida shakllar, zamonlar haqida qat'iy talablar mavjud. Umuman olganda, har ikkala til uchun ham o'zlashtirma gaplardan foydalanish matnni yaxlitlashtirishga xizmat qiladi. Biroq ayrim jihatlari bilan farqlanadi. zero, har bir tilning o'z qonuniyatlari mavjudki, o'zlashtirish jarayonida ular hisobga olinadi. O'zlashtirma gaplar haqidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshnazarova D., Ibragimova A. So'z birikmalari ta'rifiiga yangicha yondashuv. Til va adabiyot ta'limi jurnali, 4-son. – Toshkent, 2020.
2. Sayfullayev, Bakhshillo. "Fransuz tilida o'zga nutq va uning ifoda usullari." Центр научных публикаций (buxdu. uz) 31.31 (2023).
3. Sayfullayev, Baxshillo, and Gulhayo Saidova. "Discours direct en français et ses modes d'utilisation." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.3 (2023): 622-624.
4. Sayfullayev B. Noqardosh tillarda o'zlashtirmalik. "o'zbek va fransuz tillari misolida. центр научных публикаций (buxdu. uz), 2023."
5. Nematulloyevich, Sayfullayev Baxshillo. "Le discours rapporté et ses modes d'utilisation (sur l'exemple de l'ouzbek et du français)." *International conference on modern development of pedagogy and linguistics*. Vol. 1. No. 1. 2024.
6. Abdurahmonov G'.A., Shoabdurahmonov Sh.Sh., Ho'jayev A.R. O'zbek tili grammatikasi.2-jild. Sintaksis. O'zbekiston "Fan" nashriyoti. Toshkent-1976.
7. Маллина Л. Е., Андрейчикова Л. П., Турниёзов Ў. Француз тили грамматикаси (Морфология, синтаксис). – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 280 б.
8. G'ulomov A.G', Asqarova M.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent-1965.